ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 286 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Использование подходов геймификации при обучении иностранному языку детей 5-6 лет 250
Курбанова Назира Низомиддиновна

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari 257
Astanova Zumradxon Toxirovna

O'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishish ilmiy tadqiqotlar talqini asosida 262
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Образ сильной узбекской женщины в творчестве Зульфии 267
Аскарова Наргиза Абдивалиевна, Усманова Самира Зафаровна

Inklyuziv guruhlarda differensiallashtirilgan yozma topshiriqlar tizimini loyihalash tamoyillari 271
D. X. Saydazimova

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va tarbiyachining kreativ kompetentligini oshirish metodlari 275
Odilova Sitora Ergash qizi

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirish 281
Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN MATNLAR VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY VA TANQIDIY FIKRLASHINI NOTIQLIK FAOLIYATI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Ilmiy rahbar: Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida rivojlantirishda notiqlik faoliyatining o'rni tadqiq etiladi. Nutq va tafakkur birligi haqidagi nazariy qarashlar, og'zaki nutq pedagogikasi (oracy) va dialogik ta'lim yondashuvlari hamda milliy notiqlik an'analari tahlil qilinadi. Qadriyatli matnlarni tanlash mezonlari, "O'qi – o'yla – so'zla – bahola" bosqichlaridan iborat metodik model va o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy hamda notiqlik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Modelni ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llash namunasi keltiriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, milliy qadriyatlar, qadriyatli matn, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, notiqlik, og'zaki nutq, dialogik ta'lim, munozara, refleksiya.

Abstract: The article examines the role of public speaking activity in developing primary school pupils' creative and critical thinking through texts based on national values. Theoretical views on the unity of speech and thought, the approaches of oracy education and dialogic teaching, and national traditions of eloquence are analysed. Criteria for selecting value-based texts, a methodological model "Read – Think – Speak – Evaluate", and criteria for assessing pupils' creative, critical and speaking performance are developed. An example of applying the model in native language and reading literacy lessons is presented.

Key words: primary education, national values, value-based text, creative thinking, critical thinking, public speaking, oracy, dialogic teaching, discussion, reflection.

Аннотация: В статье исследуется роль ораторской деятельности в развитии творческого и критического мышления младших школьников посредством текстов, основанных на национальных ценностях. Анализируются теоретические положения о единстве речи и мышления, подходы педагогики устной речи (oracy) и диалогического обучения, а также национальные традиции красноречия. Разработаны критерии отбора ценностных текстов, методическая модель "Читай – думай – говори – оценивай" и критерии оценки творческих, критических и ораторских показателей учащихся. Приводится пример применения модели на уроках родного языка и читательской грамотности.

Ключевые слова: начальное образование, национальные ценности, ценностный текст, творческое мышление, критическое мышление, ораторское искусство, устная речь, диалогическое обучение, дискуссия, рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy ta'limda o'quvchining bilim hajmidan ko'ra shu bilim bilan qanday fikrlay olishi muhimroq sanalmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunida va Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta'limning ustuvor vazifalari qatorida belgilangan [1; 2]. Xalqaro yondashuvlarda ham ijodiy va tanqidiy fikrlash XXI asr ko'nikmalarining o'zagi sifatida qaraladi [3].

Xalqaro baholash natijalari bu vazifaning naqadar dolzarbligini ko‘rsatadi. PIRLS 2021 tadqiqotida to‘rtinchi sinf o‘quvchilarimiz matndan ma’lumot topish va oddiy xulosa chiqarishda 441 ball to‘plagan bo‘lsa, matnni talqin qilish, umumlashtirish va baholashda bu ko‘rsatkich 430 ballni tashkil etgan [4]. Ya’ni o‘quvchilar matnda aniq yozilgan narsani topishga nisbatan unga o‘z munosabatini bildirish va uni baholashda ko‘proq qiynaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darsliklarida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi matnlar – xalq maqollari, ertaklar, rivoyatlar, bolalar adiblarining hikoyalari salmoqli o‘rin egallaydi. Amaliyotda bu matnlar ko‘pincha ikki maqsadda qo‘llanadi: mazmunini qayta hikoya qilish va undan axloqiy xulosa chiqarish. Xulosani esa ko‘p hollarda o‘qituvchining o‘zi aytadi. Natijada qadriyat bolaga tayyor qoida sifatida yetkaziladi, uning ustida fikrlash, o‘z pozitsiyasini asoslash va boshqalar oldida himoya qilish imkoniyati qolmaydi. Notiqlik ham boshlang‘ich sinfda asosan ifodali o‘qish va she’r yodlash bilan cheklanadi.

Bizning fikrimizcha, qadriyatli matn, fikrlash va og‘zaki nutqni bir-biridan ajratib o‘rgatish ularning har birining samarasini pasaytiradi. Qadriyatli matn fikrlash uchun mazmun beradi, notiqlik faoliyati esa fikrni shakllantirish, asoslash va boshqalarga yetkazish vositasiga aylanadi. Maqolaning maqsadi milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirishning metodik modelini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy asosini nutq va tafakkur birligi haqidagi qarashlar tashkil etadi. L.S. Vigotskiy fikr so‘zda shunchaki ifodalanmasligini, balki so‘zda amalga oshishini, tashqi nutq ichki nutqqa aylanib, tafakkurning quroliga aylanishini ko‘rsatgan [5]. Bundan muhim pedagogik xulosa kelib chiqadi: bolaga o‘z fikrini ovoz chiqarib ifodalash imkonini berish uning fikrlashini ham shakllantiradi.

Bu g‘oya keyinchalik ingliz pedagogikasida “oracy”, ya’ni og‘zaki nutq savodxonligi tushunchasi sifatida rivojlandi. Atamani 1960-yillarda A. Uilkinson o‘qish va yozish savodxonligi bilan teng ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikma sifatida taklif etgan [6].

N. Merser va uning hamkasblari bolalar o‘rtasidagi suhbat turlarini o‘rganib, “tadqiqotchi suhbat” deb atalgan muloqot shaklini ajratib ko‘rsatdi. Bunda ishtirokchilar bir-birining fikrini tanqidiy, ammo hurmat bilan muhokama qiladi, takliflarini dalil bilan asoslaydi [7; 8]. Ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bunday suhbatga maxsus o‘rgatilganda mantiqiy fikrlash ko‘rsatkichlari ham oshishini aniqlagan.

N. Merser, P. Uorvik va A. Ahmed og‘zaki nutqni jismoniy, lingvistik, kognitiv va ijtimoiy-emotsional jihatlar bo‘yicha baholash vositasini ishlab chiqqan [9].

R. Aleksandr esa dialogik ta’lim konsepsiyasida sinfdagi nutq bolaning fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy vosita ekanini asoslagan [10].

Ijodiy fikrlashni o‘rganishda J. Gilford ajratgan divergent fikrlash, ya’ni bitta muammoga ko‘plab turli yechimlar topish qobiliyati asosiy tushuncha hisoblanadi [11].

E. Torrens uning ravonlik, egiluvchanlik va originallik kabi ko‘rsatkichlarini asoslab, ularni o‘lchash usullarini yaratgan [12].

Tanqidiy fikrlash tushunchasining ildizlari J. Dyuining refleksiv fikrlash haqidagi qarashlariga borib taqaladi [13].

P. Fasione rahbarligidagi ekspertlar guruhi tanqidiy fikrlashni talqin qilish, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari majmui sifatida ta’riflagan [14]. Bu ta’rifdagi “tushuntirish” ko‘nikmasi, ya’ni o‘z mulohazasini boshqalarga asosli bayon qilish, bevosita notiqlik bilan bog‘liq ekani e’tiborga loyiq.

Qadriyatlar pedagogikasida L. Rets va hammualliflar qadriyat tashqaridan yuklanmasligi, balki bola tanlov qilish, uni asoslash va ochiq e’lon qilish jarayonida shakllanishini ko‘rsatgan [15]. Bu nazariyada qadriyatni “ochiq tasdiqlash”, ya’ni o‘z tanlovini boshqalar oldida aytish alohida bosqich sifatida ajratilgan.

M. Lipmanning “bolalar uchun falsafa” dasturi kichik yoshdagi o‘quvchilar ham axloqiy savollar atrofida mantiqiy munozara yurita olishini amalda isbotlagan [16].

Milliy pedagogik merosimizda so‘z va nutq odobiga alohida e’tibor berilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida so‘zning qadri va uni o‘rinli ishlatish, Kaykovusning “Qobusnoma”sida so‘zlash odobi va so‘zamollik masalalari keng yoritilgan.

Alisher Navoiy asarlarida ham so‘z insonning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Nutq madaniyati va uning mezonlari o‘zbek tilshunosligida ham atroflicha o‘rganilgan [17].

Z.T. Nishonova mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslarini tadqiq etgan [18].

D.R. Shabbazova boshlang‘ich ta’lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirish masalasini o‘rganib, o‘zbek yozuvining shaffofligi sababli o‘qish ravonligi tushunishdan ilgarilab ketishini ko‘rsatgan [19].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutq va tafakkur aloqasi, ijodiy va tanqidiy fikrlash hamda qadriyatlar tarbiyasi alohida-alohida chuqur o‘rganilgan. Ularni boshlang‘ich sinfda milliy qadriyatli matn asosida, notiqlik faoliyati orqali yagona metodik tizimga birlashtirish masalasi esa hali yetarli tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish va loyihalash usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali psixologik, pedagogik va lingvistik manbalar o‘rganilib, nutq, tafakkur va qadriyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Qiyosiy tahlil yordamida og‘zaki nutq pedagogikasi va dialogik ta’lim bo‘yicha xorijiy yondashuvlar milliy notiqlik an’analari bilan solishtirildi.

Pedagogik modellashtirish asosida qadriyatli matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich metodik modeli ishlab chiqildi. Uning har bir bosqichi uchun notiqlik faoliyati shakllari va ijodiy hamda tanqidiy fikrlashning kutilayotgan ko‘rsatkichlari belgilandi. O‘quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun Torrens va Fasione ta’riflaridagi ko‘rsatkichlar hamda og‘zaki nutqni baholash bo‘yicha N. Merser va hamkasblari taklif etgan yondashuv asosida baholash mezonlari tuzildi. Model 3–4-sinflar o‘quvchilariga mo‘ljallangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday qadriyatli matn ham fikrlash va notiqlik uchun mos kelavermaydi. Axloqiy xulosasi oxirida ochiq aytilgan, qahramonlari faqat “yaxshi” va “yomon”ga ajratilgan matn bolaga fikr yuritish uchun joy qoldirmaydi. Biz matnlarni tanlashning to‘rtta mezonini aniqladik.

Birinchisi – **qadriyatli ziddiyat:** matnda kamida ikki qadriyat to‘qnashishi yoki qahramon tanlov oldida qolishi kerak.

Ikkinchisi – **ochiqlik:** matnning yakuni yoki qahramon xatti-harakatining sababi bir nechta talqinga yo‘l qo‘yishi lozim.

Uchinchisi – **milliy kontekst:** voqea bolaga tanish hayotiy muhitda, oila, mahalla, maktab doirasida kechishi kerak.

To‘rtinchisi – **janr xilma-xilligi:** maqol, ertak, rivoyat va zamonaviy hikoya navbatlashib berilishi bolaning turli nutq shakllarini egallashiga yordam beradi.

“O‘qi – o‘yla – so‘zla – bahola” modeli. Tadqiqot natijasida qadriyatli matn bilan ishlashning to‘rt bosqichli modeli ishlab chiqildi. Modelning asosiy g‘oyasi shundaki, notiqlik darsning yakunida bajariladigan qo‘shimcha topshiriq emas, balki har bir bosqichda fikrlashni shakllantiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi (1-jadval).

1-jadval: **“O‘qi – o‘yla – so‘zla – bahola” modelining tuzilishi**

Bosqich	O‘quvchi faoliyati	Notiqlik faoliyati shakli	Rivojlanadigan fikrlash
1. O‘qi	Matnni o‘qiydi, qahramon oldidagi tanlovni va to‘qnashgan qadriyatlarni aniqlaydi	Matndan dalil keltirib qisqa javob berish, qayta hikoyalash	Tanqidiy: ma’lumot topish, sabab-oqibatni aniqlash
2. O‘yla	Qahramon o‘rniga o‘zini qo‘yadi, muqobil yechimlar o‘ylab topadi	“Qahramon nomidan monolog”, “Agar men … bo‘lganimda”	Ijodiy: ravonlik, egiluvchanlik, originallik
3. So‘zla	O‘z pozitsiyasini tanlaydi va dalil bilan himoya qiladi, boshqa fikrni tinglaydi	“Bir daqiqalik nutq”, “Ikki tomon” munozarasi	Tanqidiy: dalillash, qarshi fikrni baholash; kommunikativ
4. Bahola	Nutqlarni mezon asosida baholaydi, o‘z fikri qanday o‘zgarganini tahlil qiladi	O‘zaro baholash, refleksiv nutq: “Avval … deb o‘ylardim, endi …”	Tanqidiy: baholash; refleksiya

Modelni qo‘llash namunasi

Modelni 3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsida qo‘llash uchun biz quyidagi kichik matnni tuzdik:

Anvar do‘stlari bilan futbol o‘ynashga shoshilib borardi. Yo‘l chetida yarim burda non yotganini ko‘rdi. Buvisi doim: “Nonni yerda qoldirma, uni ko‘tarib, baland joyga qo‘y”, deb o‘rgatardi. Anvar egilmoqchi bo‘lgan edi, orqadan kelayotgan do‘sti Sardor kulib yubordi: “Ko‘chadagi nonni ham terib yurasanmi? Tezroq yur, o‘yin boshlanib ketdi!” Anvar to‘xtab qoldi.

Matn qadriyatli ziddiyat mezoniga javob beradi: bir tomonda non qadri va buvining o‘giti, ikkinchi tomonda do‘stlar oldida kulgi bo‘lishdan uyalish. Matnning yakuni ochiq, voqea esa bolaga tanish muhitda kechadi.

“O‘qi” bosqichida o‘quvchilar matndan Anvarning ikkilanish sababini ko‘rsatuvchi jumlalarni topadi va “Anvar nega to‘xtab qoldi?” degan savolga matndan dalil keltirib javob beradi. “O‘yla” bosqichida har bir o‘quvchi Anvar nomidan uning ichki o‘ylarini ifodalovchi qisqa monolog tuzadi. So‘ngra sinf voqeaning mumkin bo‘lgan yakunlarini sanaydi: Anvar nonni ko‘taradi; indamay o‘tib ketadi; nonni ko‘tarib, Sardorga buvisining o‘gitini aytib beradi; keyinroq qaytib keladi. Yakunlar qanchalik ko‘p va xilma-xil bo‘lsa, ijodiy fikrlashning ravonlik va egiluvchanlik ko‘rsatkichlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

"So'zla" bosqichida sinf ikki guruhga bo'linadi va "Anvar nima qilishi kerak edi?" mavzusida "Ikki tomon" munozarasi tashkil etiladi. Har bir guruhdan ikki o'quvchi bir daqiqalik nutq so'zlaydi. Nutq qat'iy tuzilishga ega: "Mening fikrimcha… Chunki… Masalan… Shuning uchun…". Bu qolip bolaga fikrni mantiqiy tartibda bayon qilishni o'rgatadi. Tinglovchilar esa qarshi tomonning eng kuchli dalilini aniqlashi kerak. Munozara davomida "Non aziz", "Do'st achchiq gapirar" kabi maqollarni dalil sifatida ishlatish rag'batlantiriladi, bu esa xalq og'zaki ijodini nutqqa jonli olib kiradi.

"Bahola" bosqichida o'quvchilar nutqlarni oddiy mezonlar bo'yicha baholaydi: fikr aniq aytildimi, dalil keltirildimi, tinglovchiga qarab gapirdimi. Yakunda har bir bola refleksiv jumlani to'ldiradi: "Dars boshida men Anvar … qilishi kerak deb o'ylardim, endi … deb o'ylayman, chunki …".

Baholash mezonlari. O'quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun uchta yo'nalish bo'yicha mezonlar ishlab chiqildi. Har bir ko'rsatkich uch darajada baholanadi (2-jadval).

2-jadval: **Ijodiy, tanqidiy fikrlash va notiqlik ko'rsatkichlarini baholash mezonlari**

Yo'nalish va ko'rsatkich	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Ijodiy fikrlash: ravonlik va originallik	Uch va undan ortiq turli yechim taklif etadi, ular orasida noodatiysi bor	Ikki yechim taklif etadi, ular odatiy	Bitta yechim beradi yoki matndagini takrorlaydi
Tanqidiy fikrlash: dalillash va baholash	Fikrini matndan va hayotdan olingan dalil bilan asoslaydi, qarshi fikrni baholaydi	Fikrini bitta dalil bilan asoslaydi	Fikrini asoslamaydi yoki "shunchaki" deb javob beradi
Notiqlik: mazmun va tuzilish	Nutqi izchil: fikr, dalil, misol, xulosa	Nutqda fikr va dalil bor, xulosa yo'q	Nutq tartibsiz, fikr aniq emas
Notiqlik: ijro va muloqot	Ravon va aniq talaffuz bilan gapiradi, tinglovchiga qaraydi, maqol yoki ibora ishlatadi	Ravon gapiradi, ammo tinglovchi bilan aloqasi kuchsiz	Ikkilanib, past ovozda gapiradi

Olingan natijalar nutq va tafakkur birligi haqidagi nazariy qarashlarga mos keladi. Bola o'z fikrini boshqalar oldida bayon qilishga tayyorlanar ekan, uni tartibga solishga, dalil izlashga va kutilayotgan e'tirozlarni oldindan o'ylashga majbur bo'ladi. Notiqlik bu ma'noda tanqidiy fikrlashning tashqi shakli vazifasini bajaradi. Ayni paytda tinglovchini qiziqtirish, fikrni o'ziga xos tarzda ifodalash, o'xshatish yoki maqol topish ijodiy izlanishni talab qiladi. Demak, notiqlik faoliyati ijodiy va tanqidiy fikrlashni bir-biriga bog'lovchi ko'prik bo'la oladi.

Taklif etilgan model N. Merser tavsiflagan "tadqiqotchi suhbat" bilan ham hamohang [7]. "Ikki tomon" munozarasi va bir daqiqalik nutq qolipi bolalarni bir-birining fikrini hurmat bilan tinglashga va o'z takliflarini asoslashga o'rgatadi. Xorijiy tajribadan farqli o'laroq, modelimizda munozara mavzusi milliy qadriyatli matndan olinadi, dalil sifatida esa xalq maqollari ishlatiladi. Bu qadriyatlarni tayyor qoida sifatida emas, bola o'zi tanlagan va himoya qilgan pozitsiya sifatida o'zlashtirishga imkon beradi. L. Rets va hammualliflar ta'kidlaganidek, qadriyatni ochiq tasdiqlash uning shaxsiy e'tiqodga aylanishining muhim shartidir [15].

Model o'zbek yozuvining xususiyati bilan bog'liq muammoni hal qilishga ham xizmat qiladi. D.R. Shabbazova ta'kidlaganidek, o'zbek tilining orfografik shaffofligi tufayli bolalar o'qish texnikasini tez egallaydi, ravon o'qish esa ko'pincha tushunish darajasini yashirib qo'yadi [19]. Og'zaki munozara va asoslangan nutq o'qituvchiga bola matnni haqiqatan tushunganmi yoki yo'qmi, buni aniq ko'rish imkonini beradi.

Modelni amaliyotga joriy etishda ayrim xavflarni ham hisobga olish lozim.

Birinchisi – **notiqlikni yodlangan matnni ifodali aytib berishga aylantirib qo'yish.** Bu holda ijodiy va tanqidiy komponent yo'qoladi.

Ikkinchisi – **o'qituvchining munozarani o'zining "to'g'ri javobi" bilan yakunlashi.** Bunda dars yana nasihatga aylanadi.

Uchinchisi – **faqat faol o'quvchilarning so'zlashi.** Uning oldini olish uchun juftlikdagi ish va har bir bolaga navbat beriladigan "bir daqiqalik nutq" shakli qo'llanadi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan model va baholash mezonlari hozircha nazariy-metodik darajada asoslangan, ularning samaradorligi tajriba-sinov orqali tekshirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun boy imkoniyatga ega ekanini, bu imkoniyat esa matn faqat qayta hikoya qilish va axloqiy xulosa chiqarish uchun qo'llanganda to'liq ochilmasligini ko'rsatdi. Notiqlik faoliyati fikrni shakllantirish,

asoslash va boshqalarga yetkazish vositasi sifatida qadriyatli matn va fikrlash o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi.

Biz ishlab chiqqan "O'qi – o'yla – so'zla – bahola" modeli qadriyatli ziddiyat va ochiq yakunga ega matnlarni tanlashga, har bir bosqichda notiqlik faoliyatining muayyan shaklini qo'llashga va natijani ijodiy, tanqidiy hamda notiqlik ko'rsatkichlari bo'yicha baholashga asoslanadi. Amaliyot uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridagi qadriyatli matnlardan keyin kamida bitta munozarali savol berish;
- ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "bir daqiqalik nutq" shaklini muntazam qo'llash;
- o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashda mazmun va tuzilish bilan birga dalillash ko'rsatkichini ham hisobga olish.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida modelning samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. - San Francisco: Jossey-Bass, 2009. - 243 p.
4. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K.A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. - Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.–Л.: Соцэкгиз, 1934. - 324 с.
6. Wilkinson A. Spoken English. - Birmingham: University of Birmingham, 1965. - (Educational Review Occasional Publications, No. 2).
7. Mercer N. Words and Minds: How We Use Language to Think Together. - London: Routledge, 2000. - 206 p.
8. Mercer N., Littleton K. Dialogue and the Development of Children's Thinking: A Sociocultural Approach. - London: Routledge, 2007. - 176 p.
9. Mercer N., Warwick P., Ahmed A. An oracy assessment toolkit: Linking research and development in the assessment of students' spoken language skills at age 11–12 // Learning and Instruction. - 2017. - Vol. 48. - P. 51–60.
10. Alexander R. Towards Dialogic Teaching: Rethinking Classroom Talk. - York: Dialogos, 2004.
11. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - Vol. 5, No. 9. - P. 444–454.
12. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. - Princeton: Personnel Press, 1966.
13. Dewey J. How We Think. - Boston: D.C. Heath & Co., 1910. - 224 p.
14. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. - Millbrae: The California Academic Press, 1990.
15. Raths L.E., Harmin M., Simon S.B. Values and Teaching. - Columbus: Charles E. Merrill, 1966.
16. Lipman M. Thinking in Education. - 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 304 p.
17. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
18. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: psixol. fan. dok. … diss. avtoreferati. - Toshkent.
19. Shabbazova D.R. Boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning metodik asoslari: monografiya. - Termiz, 202.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.